XALQ DEPUTATLARI TO‘RAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-016-6-85-K/24 To‘raqo‘rg‘on tumani

To‘raqo‘rg‘on tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga va xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII 4-030-6-0-K/24-son qaroriga muvofiq hamda Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 02/01-32/813/1-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari To‘raqo‘rg‘on tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII 4-030-6-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, To‘raqo‘rg‘on tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **158 mlrd. 868 mln. 798 ming so‘m** va xarajatlari esa **158 mlrd. 868 mln. 798 ming so‘mga** ma‘lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek To‘raqo‘rg‘on tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **461 mln. 464 ming so‘m so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek To‘raqo‘rg‘on tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **2 mlrd. 170 mln. 335 ming so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik

yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta‘minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Q.Soxodillayev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (U.Axmedxodjayev), tuman soliq inspeksiyasi (M.Isomiddinov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari To‘raqo‘rg‘on tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi M.Appaqov hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Q.Soxodillayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



KOSIMOV SHERALI ABDUKAXAROVICH

Xalq deputatlari To‘raqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-016-6-85-K/24 -son qaroriga
1-ilova

2025-yil uchun To‘raqo‘rg‘on tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi

ming so‘m

T/r	Daromad turlari	To‘raqo‘rg‘on tuman
1	Aylanmadan olinadigan soliq	6,839,580
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	72,598,680
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2,066,000
4	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	20,795,250
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8,003,000
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	9,458,288
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	13,474,000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	21,208,000
9	Qurilish materiellari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	1,468,000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4,251,000
	shundan: Qishloq xo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	4,165,000
	Qishloq ho‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘ining 40 foizini qaytarish	1,666,000
11	Davlat ulushi bo‘yicha dividentlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	13,000
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	360,000
JAMI		**158,868,798**

Xalq deputatlari To‘raqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-016-6-85-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun To‘raqo‘rg‘on tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdori

ming so‘m

T/r	Ko‘rsatgichlar	To‘raqo‘rg‘on tuman
	To‘raqo‘rg‘on tuman bo‘yicha jami	**158,868,798.0**
	shundan:	
	rivojlantirish dasturlari uchun xarajatlar	
	zaxira jamg‘armasi	2,170,335.0
	mening maktabim dasturi	3,551,033.0
	fuqarolar tashabbus jamg‘armasi	34,334,357.0
1	**To‘raqo‘rg‘on tuman maktabgacha va maktab ta'lim bo‘limi**	**49,762,398.0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	49,762,398.0
	shundan:	
	mening maktabim dasturi	3,551,033.0
2	**To‘raqo‘rg‘on tuman madaniyat bo‘limi**	**6,686,318.0**
3	**To‘raqo‘rg‘on tuman Yoshlar agentligining hududiy bo‘limi**	**7,879,066.0**
4	**To‘raqo‘rg‘on tuman Sport bo‘limi**	**10,611,790.0**
5	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**1,724,289.0**
6	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**3,019,671.0**
7	**To‘raqo‘rg‘on tuman irrigatsiya bo‘limi**	**2,080,747.0**
8	**To‘raqo‘rg‘on tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2,322,767.0**
9	**To‘raqo‘rg‘on tumani hokimligi**	**52,326,204.0**
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	103,927.0
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga dastlabki ijtimoiy-yordam paketi	34,500.0
	Fuqarolar tashabbus jamg‘armasi	34,334,357.0
	Mahalla budjeti jamg‘armasi mablag‘lari	2,188,701.0
	zaxira jamg‘armasi	2,170,335.0
10	**Hokimlik (Prezident Administratsiyasi huzuridagi muasssasalar)**	**810,587.0**
	shundan:	

	Xalq Qabulxonasi	128,262.0
	Axborot-kutubxona markazi	682,325.0
11	**Hokimlik *(Obodonlashtirish boshqarmasi)***	**21,644,961.0**

Xalq deputatlari To‘raqo‘rg‘on tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-016-6-85-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025 yil Namangan viloyatining viloyat, shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Foyda solig‘i				Alkagol mahsulotlari (pivodan tashqari)				Pivo				Yakuniy istemolchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizasiya qilishdagi aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	To‘raqo‘rg‘on tumani	X	81%	100%	19%	X	X	100%	100%	X	X	100%	100%	X	X	100%	100%	X	85%	100%	15%	X	100%	100%	X

(Foiz hisobida) (3-ilova davomi)

№	Hududlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan er solig‘i				Qurulish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividentlar				Aylanmadan soliq	
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB		
1	To‘raqo‘rg‘on tumani	X	100%	100%	X	100%	100%	X	X	100%	100%	X	X	100%	100%	X	X	66%	34%

(Foiz hisobida) (3-ilova davomi)

№	Hududlar nomi	Davlat boji		Jarimalar		Yig‘imlar	
		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
1	To‘raqo‘rg‘on tumani	X	100%	X	100%	X	100%